



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2024- YIL YANVAR-IYUN

SIRDARYO VILOYATIDA
BAJARILGAN QURILISH ISHLARI




2024- yil 1-iyul holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

Guliston sh.	291
Mirzaobod tumani	82
Sirdaryo tumani	80
Yangiyer sh.	67
Guliston tumani	60
Boyovut tumani	55
Sayxunobod tumani	46
Xovos tumani	39
Oqoltin tumani	39
Sardoba tumani	35
Shirin sh.	32

2024- yilning 1- iyul holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 826 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 291 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 35,2 % qismi Guliston shahrida joylashgan.




Qurilish korxonalari soni, birlikda



Shuningdek, Guliston shahrida 291 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 35,2 %), Mirzaobod tumanida – 82 ta (9,9 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari


hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



2024- yilning yanvar-iyun oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 1 708,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi.


Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

oʻsish surʻati oʻtgan yilga nisbatan, % da, mlrd. soʻm



2024- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 70,7 % yoki 1 207,6 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


mlrd. soʻmda

	2023- yil	2024- yil	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	1 130,4	1 207,6	100,0
Guliston sh.	339,1	379,7	31,5
Shirin sh.	47,5	52,3	4,3
Yangiyer sh.	55,4	65,7	5,4
Boyovut	30,5	36,6	3,0
Guliston	52	54,6	4,5
Mirzaobod	262,3	286,5	23,7
Oqoltin	19,2	26,5	2,2
Sardoba	24,9	48,5	4,0
Sayxunobod	26	41,5	3,5
Sirdaryo	224,9	168,9	14,0
Xovos	48,6	46,8	3,9

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari boʻyicha yuqori hajm, Guliston shahri (379,7 mlrd. soʻm), Mirzaobod tumani (286,5 mlrd. soʻm), Sirdaryo tumani (168,9 mlrd. soʻm) va Yangiyer shahri (46,8 mlrd. soʻm) qayd etildi.


Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

Hajmi (mlrd. soʻm) va Oʻsish surʼati (% da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

O'sish sur'ati



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.




1 108,5
mlrd. so'm

Bino va inshootlar qurish



509,5
mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish




90,0
mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


2024- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 64,9 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 94,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 29,8 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 126,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,3 % ulushni va 2023- yilga nisbatan 108,1 % ni tashkil etdi.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



**Yirik qurilish
tashkilotlari**




**Kichik korxona
va mikrofirmalar**



Norasmiy sektor

Jamiga nisbatan, % da



Jami bino va inshootlarni qurish - 1 108,5 mlrd. so'm


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,6 % ni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 12,8 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilga nisbatan 9,1 % punktga ko'payib 77,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilga nisbatan 3,7 % punktga ko'payib, 14,3 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilishi hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sardoba tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 87,3 %), Yangiyer shahri (84,7 %) va Guliston tumani (82,6 %) da kuzatildi.



Sardoba tumani




Yangiyer shahri




Guliston tumani

2024- yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik obyektlarini qurish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



**Yirik qurilish
tashkilotlari**



**Kichik korxona
va mikrofirmalar**




Jamiga nisbatan, % da

Jami fuqarolik obyektlarini qurish - 509,5 mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 34,0 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 11,4 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 66,0 % (11,4 % punktga kamaydi).

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi mlrd. so'mda va o'sish sur'ati



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 71,9 %), Guliston shahri (31,4 %) va Shirin shahri (31,0 %)da kuzatildi.



Mirzaobod tumani




Guliston shahri



Shirin shahri

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



Jamiga nisbatan, % da


Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 90,0 mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 0,6 % ni tashkil etdi.

Qolgan 99,4 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʼati



Maʼlumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sayxunobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 12,0 %), Boyovut tumani (11,4 %) va Xovos tumani (10,2 %) kuzatildi.



12,0 %

Sayxunobod tumani



11,4 %

Boyovut tumani




10,2 %

Xovos tumani

2024- yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi, % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil bilan solishtirganda –
79,3 %



Kichik korxona va mikrofirmalar


2023- yil bilan solishtirganda –
108,0 %




Norasmiy sektor

2023- yil bilan solishtirganda –
121,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.




2024- y.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 268,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 79,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,8 % ga kamayib, 15,8 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

**Jami yirik qurilish
tashkilotlari tomonidan bajarilgan - 268,9 mlrd. so'm
qurilish ishlari hajmi**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi *oldingi yilga nisbatan, % da, Hajmi, mlrd. so'm*



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlar *Hududlar kesimida*



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shirin shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 71,3 %), Sardoba tumanida (37,0 %) va Mirzaobod tumanida (30,8 %) qayd etildi.



mlrd. so'm

Jamiga nisbatan ulushi



Shirin shahri




Sardoba tumani




Mirzaobod tumani

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.



2024- y.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,9 % to'g'ri kelib, 2023- yilga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 108,0 % ni tashkil etgan holda 1 280,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

**Jami kichik korxona va mikrofirmalar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari - 1 280,0 mlrd. so'm
hajmi**

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

O'sish sur'ati, % da va hajmi (mlrd. so'm)



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari *Hududlar kesimida*



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahriga (433,7 mlrd. so'm), Mirzaobod tumaniga (196,7 mlrd. so'm), Sirdaryo tumaniga (193,4) to'g'ri keldi.



Jamiga nisbatan ulushi

96,1 %



Yangiyer shahri

86,9 %




Guliston shahri

85,6 %




Guliston tumani

2024- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.




2024- y.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 9,3 % yoki 159,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 121,9 % ga yetdi.

Shundan, 98,4 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilga nisbatan 147,1 %, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1,2 mlrd. soʻmni va 15,7 %, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 59,5 mlrd. soʻmni va 105,5 % tashkil etdi.

Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

Oʻsish surʼati, % da va hajmi (mlrd. soʻm)



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor *Hududlar kesimida*



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (55,4 mlrd. so'm), Sirdaryo tumanida (33,5 mlrd. so'm) va Boyovut tumanida (14,3 mlrd. so'm) qayd etildi.



Jamiga nisbatan ulushi



30,1 %

Boyovut tumani



24,6 %

Xovos tumani



16,2 %


Sayxunobod tumani

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi mlrd. so'mda

2023-y.



2024-y.



 Davlat mulkchiligi

 Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan jami 57,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan esa 1 650,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,4 % va 96,6 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Yangiyer shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %), Shirin shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 %) va Guliston shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 99,8 %) qayd etildi.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.